

## SAYYOH EKOLOGIYASI SAYOHATCHILAR UCHUN QULAY VA BARQAROR MUHIT YARATISH USULI SIFATIDA

**Naurizbaev A.R**

*Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), University of innovation  
technologies dotsenti akbarshox\_9292@uit.uz ORCID: 0009-0007-6728-4887*

**Annotatsiya:** *So'nggi yillarda Qoraqalpog'istonda turizm jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sohaning raqobatbardoshligini oshirish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va samarali loyihalarni hayotga tatbiq etish lozim. Ana shunday chora-tadbirlardan biri o'zaro bog'liq va muhim bir qator jarayonlarni o'z ichiga oluvchi sayyoh ekologiyasini shakllantirishdir.*

**Kalit so'zlar:** *mintaqaviy turizm, sayyoh ekologiyasi, shakllantirish yondashuvlari va tartiblari.*

### Adabiyotlar tahlili

“Sayyoh ekologiyasi” tushunchasi turizm faoliyati jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va sayohatchilar uchun sog'lom, xavfsiz hamda qulay muhit yaratishga qaratilgan ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda bu yondashuv barqaror turizm, mas'uliyatli turizm va ekologik turizm konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

### Kirish

Turizm jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Har yili millionlab odamlar dam olish, yangi taassurotlar orttirish va o'zga madaniyatlarni o'rganish maqsadida dunyo bo'ylab sayohat qiladi. Biroq sayyohning qulayligi va xavfsizligi ko'p jihatdan sayyohlik muhitining qay darajada savodli va ekologik to'g'ri tashkil etilganiga bog'liqdir.

“Sayyoh ekologiyasi” tushunchasi nafaqat insonning tabiatga ehtiyotkorona munosabatini, balki sayohatchi o'zini qulay, xavfsiz his etadigan, maishiy va axborot masalalarida qiyinchiliklarga duch kelmaydigan sharoitlarni yaratishni ham o'z ichiga oladi.

“Sayyoh ekologiyasi” tushunchasi va uni shakllantirishga zamonaviy yondashuv ko'plab tadqiqot hamda tavsiyalarda o'z aksini topgan bo'lib, ularning bir qismi maqolaning bibliografiyasida keltirilgan.

Zamonaviy turizm ekologiyasi inson qulayligi va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi uyg'unlikni anglatadi. Sayyohlik tizimi puxta o'ylangan va barqaror bo'lishi lozim: sayohatchi barcha zarur xizmatlardan foydalanadi va uning tashrifi ekotizimga ziyon yetkazmaydi.

## Metodologiya

Turizmning ekologikligi – bu qulaylik, oqilonalik va mas'uliyat uyg'unligidir. Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) mutaxassisleri ta'kidlaganidek, barqaror turizm kelajak avlodlar uchun tabiiy va madaniy resurslarni asragan holda sayohatchilar hamda mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirishi kerak [1, 8]. Aytish joizki, “shayton mayda-chuyda ishlarda yashiringan” degan ibora bevosita ushbu maqola mavzusiga daxldordir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, agar har bir sayyoh o'ziga ko'rsatilgan xizmatlardan mamnun bo'lmasa, hech qanday reklama yoki dabdabali brend natija bermaydi. Shunday qilib, turizm ekologiyasini qanday yaratish mumkinligini tizimli ravishda ko'rib chiqaylik. Bizningcha, u quyidagi bir qator jihatlardan shakllanadi:

- axborot muhiti va mo'ljal olish,
- ekologiklik unsuri sifatida asosiy qulayliklar,
- xavfsizlik va tibbiy yordam,
- moliya va servis infratuzilmasi,
- xizmat ko'rsatish madaniyati va sayyohga hurmat,
- tabiat bilan uyg'unlik.

Ana shu jihatlarining har birini ko'rib chiqamiz.

Axborot muhiti va mo'ljal olish. Qulaylikning eng muhim shartlaridan biri tushunarli axborot muhitidir. Sayyohga quyidagilar zarurligi ayon:

- yo'nalishlarning aniq ko'rsatkichlari va chizmalari;
- obyektlar, qahvaxonalar, dorixonalar, valyuta ayirboshlash shoxobchalari va transportni izlash uchun yo'lko'rsatkichlar hamda mobil ilovalar;
- xorijiy mehmonlar uchun ko'p tilli yozuvlar va ochiq ma'lumotlar.

Shubhasiz, navigatsiyaning yetishmasligi stressni keltirib chiqaradi, sayohat taassurotlarini susaytiradi va hududning ijobiy obro'-e'tiborini shakllantirishga xalal beradi.

Ekologik soflik unsuri sifatida oddiy qulayliklar. Turistik muhit sifati oddiy maishiy sharoitlarning mavjudligi bilan bevosita bog'liq. Yo'nalishlarda quyidagilar tashkil etilishi kerak:

- toza biohojatxonalar;
- chiqindilarni saralash uchun konteynerlar;
- soya-salqin va ichimlik suvi bo'lgan dam olish maskanlari;
- tabiiy hududlardagi xavfsiz so'qmoq va ko'prikchalar.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sayohatchiga qulaylik yaratilsa, u o'zini tartib-intizomli tutadi va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi [2, 12].

Xavfsizlik va tibbiy yordam. Shubhasiz, xavfsizlik turizm ekologiyasining ajralmas qismidir. Bu borada quyidagilarning mavjudligini ta'minlash muhim:

- tibbiy punktlar va birinchi yordam qutichalari;

- qutqaruv va qo'riqlash xizmatlari;
- shoshilinch yordam telefon raqamlari haqidagi ochiq ma'lumotlar;
- butun sayohat hududida amal qiladigan sug'urta dasturlari.

Haqiqatan ham, himoyalanganlik hissi sayyohlarning ishonchini oshiradi va mamlakatning ijobiy obro'-e'tibori rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Moliya va servis infratuzilmasi. Zamonaviy sayyoh qulay servis darajasini kutadi, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- valyutani shaffof kurs bo'yicha ayirboshlash imkoniyati;
- karta orqali to'lov qilish va bankomatlarning mavjudligi;
- bepul Wi-Fi tarmog'idan foydalanish imkoniyati.

Arzimagan tuyulgan bu jihatlar mamlakat haqida umumiy taassurotni shakllantiradi va uning madaniyatlilik darajasining ko'rsatkichiga aylanadi.

Xizmat ko'rsatish madaniyati va sayyohga hurmat. Turizm ekologiyasi — bu nafaqat infratuzilma, balki insoniy munosabatlar madaniyati hamdir. Xodimlarning xushmuomalaligi, samimiyligi va mahorati sayohatchida psixologik qulaylik hissini uyg'otadi. Aynan mehmonga ko'rsatilgan hurmat xizmat ko'rsatishning ichki "ekologik madaniyati"ning eng muhim unsuridir [3, 9].

Tabiat bilan uyg'unlik. Qulay sharoitlar yaratishda, albatta, tabiiy muvozanatni buzmaslik muhim. Buning uchun quyidagilar zarur:

- qo'riqxonalar hududlarida transport harakatini cheklash;
- ekotizimga zarar yetkazmagan holda ekologik so'qmoqlar va dam olish maskanlarini rivojlantirish;
- mehmonxona va kafelar qurilishida ekologik toza materiallardan foydalanish;
- chiqindilarni saralab yig'ish va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish.

Shu tariqa sayyoh uchun qulaylik va mintaqaning tabiiy boyliklarini asrash o'rtasidagi uyg'unlikka erishiladi.

#### Natijalar

Tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili asosida sayyoh ekologiyasini turizm amaliyotiga joriy etish sayohatchilar uchun qulay, xavfsiz va barqaror muhitni shakllantirishda yuqori samaradorlik berishi aniqlandi. Olingan natijalar quyidagi yo'nalishlarda umimlashtirildi:

#### 1. Ekologik boshqaruv tizimini joriy etish natijasi

Turistik hududlarda ekologik monitoring, chiqindilarni boshqarish, suv va energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash natijasida hududning sanitariya-gigiyenik holati yaxshilanadi, tabiiy muhitning ifloslanish darajasi kamayadi va sayohatchilar uchun sog'lom muhit yaratiladi.

Bu yondashuv United Nations World Tourism Organization tavsiyalariga mos keladi.

#### 2. Turistlar qoniqish darajasining oshishi

Toza muhit, yashil hududlar, ekologik xavfsiz infratuzilma va gigiyenik sharoitlar turistlarning hudud haqidagi ijobiy fikrini shakllantiradi, takroriy tashriflar sonini ko'paytiradi hamda hudud imijini mustahkamlaydi.

### 3. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samarasi

Ekologik cheklovlarni inobatga olgan holda turizmni tashkil etish hududning bioxilma-xilligini saqlash, landshaftlarni muhofaza qilish va turistik jozibadorlikni uzoq muddat davomida saqlab qolish imkonini beradi.

Bu yondashuv barqaror turizm nazariyasida

David Weaver tomonidan asoslab berilgan.

### 4. Ekologik madaniyat va mas'uliyatli xulq-atvor shakllanishi

Sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasida ekologik ong va madaniyat oshishi natijasida tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanadi.

Bu jarayon mas'uliyatli turizm tamoyillariga mos ravishda

Harold Goodwin qarashlarini tasdiqlaydi.

### 5. Hududning turistik raqobatbardoshligining ortishi

Ekologik toza va qulay muhitga ega hududlar xalqaro va mahalliy turizm bozorida ustunlikka ega bo'ladi. Ekologik brend shakllanishi hududni boshqa destinatsiyalardan ajratib turadi.

### 6. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik

Ekologik turizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholi bandligi oshadi, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanadi, natijada hududiy daromad manbalari kengayadi.

### 7. Uzoq muddatli barqarorlik ta'minlanishi

Turizmni ekologik talablarga asoslangan holda tashkil etish hududning turistik salohiyatini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish imkonini beradi hamda ekologik degradatsiya xavfini kamaytiradi.

### Xulosa

Sayyoh ekologiyasi — bu inson atrof-muhitga ziyon yetkazmasdan bemaol sayohat qilishi mumkin bo'lgan oqilona tashkil etilgan sharoitlar tizimidir.

Puxta o'ylangan infratuzilma, har bir jihatga e'tibor, xavfsizlik, servis va xizmat ko'rsatish madaniyati barqaror turizm asosini tashkil etadi.

Ekoturistik muhitni yaratish nafaqat tabiatga, balki mamlakat obro'siga ham kiritilgan sarmoyadir.

Qulay sharoitdagi sayyoh – mamnun sayyoh, mamnun sayyoh esa davlatning ezgu nom elchisiga aylanadi. Sayohatchilar uchun ekologik toza muhitni shakllantirish – mintaqada turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishining garovidir.

Buni eng yaxshi reklama usuli bo'lgan “og'zaki reklama”ning ajralmas unsurlaridan biri deb hisoblash mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Всемирная туристская организация (UNWTO). Sustainable Tourism Development Guidebook: Enhancing Local Benefits and Reducing Costs. — Madrid: World Tourism Organization, 2021. — 156 p.
2. Егоров В. Н. Устойчивый туризм: принципы и практика. — Москва: Академия, 2020. — 288 с.
3. Гуляев В. Г. Туризм: экономика и организация. — Москва: Финансы и статистика, 2019. — 352 с.
4. Куницкая Е. А. Экология и туризм. — Санкт-Петербург: Герда, 2021. — 240 с.
5. Организация Объединённых Наций (ООН). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: United Nations, 2015. — 41 p.
6. ЮНЕСКО. Tourism and Culture Synergies. — Paris: UNESCO Publishing, 2018. — 118 p.
7. OECD. Tourism Trends and Policies 2022. — Paris: OECD Publishing, 2022. — 180 p.
8. Трофимова Г. С. Экологизация туристской деятельности. — Москва: Инфра-М, 2018. — 196 с.
9. Кобзарь А. В. Туризм и охрана окружающей среды: учебное пособие. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2020. — 272 с.
10. Hassan, S. S. Determinants of Market Competitiveness in an Environmentally Sustainable Tourism Industry. // Journal of Travel Research. — 2020. — Vol. 59(4). — P. 620–638.
11. UNEP & UNWTO. Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers. — Paris/Madrid: UNEP and UNWTO, 2019. — 208 p.
12. Хазиева Л. И., Мухаметзянова Г. Р. Экология туризма: учебное пособие. — Казань: КНИТУ, 2022. — 134 с.